



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**



**2023- YILNING YANVAR-IYUN OYLARIDA
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA
YALPI ICHKI MAHSULOTNI
ISHLAB CHIQRISH**




Toshkent-2023

2019-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yalpi ichki mahsulot (YAIM)¹ (joriy narxlarda, mlrd. so'm)


2023- yilning yanvar-iyunida O'zbekiston Respublikasi YAIMi hajmi joriy narxlarda **469 619,0** mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda **5,6** % ga o'sdi. YAIM deflyator indeksi 2022- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan **111,9** % ni tashkil etdi.

✓ **Yalpi ichki mahsulot (YAIM)** iqtisodiy rezident-birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalovchi va ushbu birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati orqali o'lchanadigan Milliy hisoblar tizimi (MHT)ning asosiy ko'rsatkichlaridan biridir.




✓ **YAIM fizik hajm indeksi (o'sish sur'ati)** doimiy narxlarda, ya'ni o'tgan yilning mos davri narxlarida hisoblangan hisobot davri YAIM (real YAIM)ni joriy narxlardagi o'tgan yilning mos davri YAIM-ga nisbati orqali hisoblanadi.

2019-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida YAIMning o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




2019-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida YAIMning deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




¹Bu yerda va keyingi o'rinlarda 2019-2022- yillarning yanvar-iyun oylari uchun aniqlik kiritilgan ma'lumotlar keltirilgan.



2019-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIM (joriy narxlarda, trln. so'm)




2019-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida O'zbekiston Respublikasi YAIMi (mlrd. AQSH dollarida)



Joriy davrda o'rtacha almashuv kursi bo'yicha hisoblangan nominal YAIM hajmi 41 235,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Ma'lumot uchun: 2023- yilning yanvar-iyun oylarida AQSH dollarining so'mga nisbatan o'rtacha rasmiy kursi il 388,7 so'm, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida il 046,9 so'm, 2021- yilning yanvar-iyun oylarida il 524,5 so'm, 2020- yilning yanvar-iyun oylarida 9 790,2 so'm, 2019- yilning yanvar-iyun oylarida 8 426,8 so'mga teng bo'lgan.

2019-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida YAIM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




YAIM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i **0,7** f.p., sanoat tarmog'i – **1,4** f.p., qurilish tarmog'i – **0,3** f.p. va xizmat ko'rsatish tarmog'i **2,6** f.p. ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAIM **0,6** f.p. ga ko'paydi.

Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi YAIM umumiy hajmining **94,6** % ini tashkil etdi va **5,5** % ga o'sdi (YAIM mutlaq o'sishiga ta'siri **5,0** foiz punktni tashkil etdi). Mahsulotlarga sof soliqlarning YAIM tarkibidagi ulushi **5,4** % ni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda **6,9** % ga o'sdi (YAIM mutlaq o'sishiga ta'siri – **0,6** f.p.).




2019-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAIM tarkibi (jamiga nisbatan % da)




2023- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, YAIM tarkibida katta bo'lmagan o'zgarishlar kuzatildi. YAIM (YAQQ) tarkibida xizmatlar sohasining ulushi 44,1 % dan 47,1 % ga oshdi. Shu bilan birga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi 20,9 % dan 20,1 % ga, sanoatning ulushi 28,0 % dan 26,3 % ga, qurilish tarmog'ining ulushi 7,0 % dan 6,5 % ga kamaydi.

- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Xizmatlar

2019-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAIM tarkibi (jamiga nisbatan % da)



2019-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga YAIM (joriy narxlarda, ming so‘m)



Ma‘lumot uchun: O‘zbekiston Respublikasi doimiy aholisining o‘rtacha soni 2019- yilning yanvar-iyunida **33 390,1** ming kishi, 2020- yilning yanvar-iyunida **34 049,6** ming kishi, 2021- yilning yanvar-iyunida **34 709,5** ming kishi, 2022- yilning yanvar-iyunida **35 437,4** ming kishi va 2023- yilning yanvar-iyunida **36 198,6** ming kishini tashkil etgan.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAIM hajmi joriy narxlarda **12 973,4** ming so‘mni (yoki **1 139,2** AQSH dollari ekvivalentida) tashkil etdi.


2019-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga YAIMning o‘shish (kamayish) sur‘atlari (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Quyida keltirilgan diagrammadan ko‘rinib turganidek, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga YAIM hajminig real o‘shishi 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **3,4 %** ni, 2019- yilning mos davriga nisbatan esa **11,7 %** ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga YAIM (YAHM) muayyan davrda joriy narxlardagi YAIM (YAHM) hajmini mamlakat (hudud)ning o‘rtacha aholisi soniga bo‘lish orqali aniqlanadi.

2019-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida yaratilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining yalpi qo'shilgan qiymati




2023- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, **qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida** **3,8 %** (2022- yilning yanvar-iyunida – **2,6 %**, 2021- yilning yanvar-iyunida – **1,8 %**, 2020- yilning yanvar-iyunida – **2,4 %**, 2019- yilning yanvar-iyunida – **2,4 %**) darajasida ijobiy o'sish qayd etildi.

Ushbu ijobiy o'sish sur'atlari chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning **3,5 %** (2022- yilning yanvar-iyunida – **2,0 %**, 2021- yilning yanvar-iyunida – **4,1 %**, 2020- yilning yanvar-iyunida – **1,6 %**, 2019- yilning yanvar-iyunida – **2,0 %**)ga o'sishi bilan bog'liq.

Shu bilan birga, joriy davrda dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish esa **4,3 %** (2022- yilning yanvar-iyunida **3,8 %** ga o'sish, 2021- yilning yanvar-iyunida **1,4 %** ga kamayish, 2020- yilning yanvar-iyunida – **3,8 %** ga o'sish, 2019- yilning yanvar-iyunida – **3,6 %** ga o'sish)ga o'sdi.

2019-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida sanoat tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati




2023- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, sanoat tarmog'i qo'shilgan qiymatida **5,6** % ga o'sish kuzatilgan.

Ushbu tarmoqdagi ijobiy dinamika, asosan tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog'ining qo'shilgan qiymati **0,2** % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning **6,3** % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tarmog'ining **9,9** % ga o'sishi hisobiga ta'minlandi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish tarmog'ida ham **3,6** % ga ijobiy o'sish qayd etildi.




2019-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida sanoat tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati dinamikasi



2019-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida sanoat tarmog'i yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan % da)



2019-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida yaratilgan qurilish tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati



2022- yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 2023- yilning yanvar-iyun oylarida **qurilish ishlari** hajmi **4,8** % ga o'sdi. Jumladan, o'sish sur'atlari bino va inshootlar qurilishida **101,8** % ni, fuqarolik obyektlari qurilishida **102,3** % ni va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarida **137,9** % ni tashkil etdi.



2023- yilning yanvar-iyun oylarida qurilish tarmog'i yalpi qo'shilgan qiymati o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




✓ **Ma'lumot uchun:** 2023- yilning yanvar-iyunida qurilish ishlari hajmi **68 139,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlarining umumiy hajmida yirik qurilish tashkilotlarining ulushi **22,9** %, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi **59,7** %, jismoniy shaxslarning ulushi **17,4** % ni tashkil etdi.

2019-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida
qurilish tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati


Binolar va inshootlar qurish



Fuqarolik obyektlarini qurish



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari




 Hajmi, mlrd. so'm

 Tarkibi, jamiqa nisbatan % da



2019-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida yaratilgan xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati



2019-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2023- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, **xizmatlar sohasi** ning yalpi qo'shilgan qiymati hajmi **209 403,6** mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-iyuniga nisbatan **6,4** % ga o'sdi. Shu jumladan, savdo xizmatlari **6,8** % ga, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar **9,7** % ga, tashish va saqlash xizmatlari **7,6** % ga, axborot va aloqa xizmatlari **22,2** % ga, boshqa xizmatlar **4,9** % ga o'sdi.

Yil	Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	Tashish va saqlash, axborot va aloqa	Boshqa xizmat tarmoqlari
2019	16,3	18,6	65,1
2020	15,9	16,4	67,8
2021	16,8	16,9	66,3
2022	16,9	16,6	66,5
2023	15,9	16,8	67,3


- Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Boshqa xizmat tarmoqlari



2019-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida yaratilgan savdo tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati



2019-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida savdo tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi dinamikasi (jamiga nisbatan % da)




2023- yilning yanvar-iyun oylarida **savdo** tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibida eng katta ulush chakana savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari)ga to'g'ri keldi va **63,5 %** ni tashkil etdi. Ulgurji savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari)ning ulushi **29,4 %** ni, avtotransport vositalarining ulgurji va chakana savdosi hamda ularni ta'mirlashning ulushi **7,1 %** ni tashkil qildi.

■ Chakana savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari)
■ Ulgurji savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari)
■ Avtotransport vositalarining ulgurji va chakana savdosi (ularni ta'mirlashni qo'shgan holda)

2019-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida yaratilgan tashish va saqlash tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati



2019-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida yaratilgan tashish va saqlash tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan % da)




2023- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, **tashish va saqlash tarmog'ining** O'zbekiston Respublikasi YAIMidagi ulushi **5,8 %** ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash tarmog'ining qo'shilgan qiymati tarkibida eng ko'p ulush avtomobil transportiga to'g'ri keldi va **52,5 %** ni tashkil etdi. Mazkur tarmoq umumiy qo'shilgan qiymatida quvur transportining ulushi **16,5 %**, temir yo'l transportining ulushi **9,3 %**, yordamchi transport faoliyatining ulushi **14,1 %**, havo transportining ulushi **7,6 %** ni tashkil etdi.



2019-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida yaratilgan axborot va aloqa tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati




O'sish sur'ati, % da


Hajmi, mlrd. so'm

2023- yilning yanvar-iyunida **axborot va aloqa tarmog'ining** mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi **2,1 %** ni tashkil etdi. Mazkur tarmoq yalpi qo'shilgan qiymati tarkibida asosiy ulush aloqa xizmatlariga (simli va mobil aloqa xizmatlari, internet tarmog'i va boshqalarga) to'g'ri keldi va **55,7 %** ni tashkil etdi. Tarmoqda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymatning qolgan **44,3** foizi axborot va aloqaning boshqa tarmoqlari (nashriyot faoliyati, kompyuter dasturlashtirish sohasidagi faoliyat, dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat, teleko'rsatuv va radio-eshittirish v.b.) hissasiga to'g'ri keldi.

2019-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida axborot va aloqa tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan % da)




2021-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida
AKT xizmatlarining yalpi qo'shilgan qiymati, *mlrd. so'm*



2023- yilning yanvar-iyunida **axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) xizmatlarining** mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi **1,9 %** ni tashkil etdi.

Tarmoqda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmining **60,3** foizi aloqa xizmatlari, **22,3** foizi kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar, **9,8** foizi ma'lumotlarni joylashtirish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, Web-portallar, **3,9** foizi kompyuterlar va aloqa uskunalarini ta'mirlash xizmatlari, qolgan **3,7** foizi dasturiy ta'minotni chiqarish hissasiga to'g'ri kelgan.

2021-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida AKT xizmatlarining
YAIMdagi ulushi, *YAQQga nisbatan % da*






2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik (biznes)da yaratilgan YAQQning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2023- yilning yanvar-iyun oylari yakunlari bo'yicha **kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari** tomonidan **216 034,0** mlrd. so'm miqdorida qo'shilgan qiymat yoki iqtisodiyotdagi yalpi qo'shilgan qiymatning **48,6** % i yaratilgan. Shundan **39,9** % i qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, **11,7** % i sanoat, **10,6** % i qurilish tarmoqlari va **37,8** % i xizmatlar sohasiga to'g'ri keldi.

- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Xizmatlar



2023- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAIMda kichik tadbirkorlik (biznes)ning ulushi (YAQQga nisbatan % da)



Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari ulushi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **96,6** %, qurilishda **78,7** %, xizmatlar sohasida **39,0** % va sanoatda **21,7** % ni tashkil etdi.



Makroiqtisodiy indikatorlar va milliy hisoblar boshqarmasi
Tel.: 71 203-80-28; 71 202-80-30

